

IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI FAOLIYATI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATINI TASHKIL ETISH SUB'EKTLARI VA ULARNING HUQUQIY MAQOMI

Ismatov Shamsiddinxon Akromjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi Davlat boshqaruvi

yo'nalishi magistranti

Mail: shamsiddinismatov6@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlarning huquq va majburiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Jamoatchilik nazorati rivojlanib borar ekan, bugungi kunda ushbu tushuncha qonunchilik darajasida e'tirof etildi. Jamoatchilik nazorati sub'ektlari sifatida, fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarni sanab o'tishimiz mumkin. Maqolada, mazkur sub'ektlarning huquqiy maqomi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jamoatchilik nazorati, fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat hokimiyati organlari, davlat, qonun, fuqarolik jamiyati

Аннотация: В статье подробно проанализированы права и обязанности субъектов общественного контроля. По мере развития общественного контроля это понятие признается на законодательном уровне. В качестве субъектов общественного контроля можно назвать граждан, органы самоуправления, средства массовой информации и другие негосударственные некоммерческие организации. В статье будет научно-практический анализ правового статуса этих субъектов.

Ключевые слова: Общественный контроль, граждане, органы самоуправления, органы государственной власти, государство, закон, гражданское общество.

Abstract: The article analyzes in detail the rights and obligations of subjects of public control. As public control develops, this concept is recognized at the legislative level. Citizens, self-government bodies, the media and other non-governmental non-profit

organizations can be named as subjects of public control. The article will be a scientific and practical analysis of the legal status of these subjects.

Keywords: Public control, citizens, self-government bodies, public authorities, state, law, civil society.

Bugungi kunda, davlat siyosati hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan fuqarolarda daxldorlik hissi tobora mustahkamlanib bormoqda. Qaysiki ma'noda, fuqarolar davlat va jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlarga nisbatan sub'ektiv munosabatlarini bildirish huquqidan erkin foydalanishmoqda. Bu esa, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ta'kidlab o'tish kerakki, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi qonunchilik ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolar huquqiy madaniyati darajasining oshib borishi jamoatchilik nazoratini amalga oshirish samaradorligini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ma'lumki, jamoatchilik nazoratini barcha toifadagi shaxslar amalga oshirish huquqiga ega emas. Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikka ko'ra belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin.¹ Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar milliy qonunchilik asoslarini mazmunan to'g'ri tushuna oladigan, qonunchilikning amaliyotda qo'llanilish bilan bog'liq holatlarni chuqur tahlil qila oladigan shaxslar bo'lishi talab etiladi. Sababi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar muayyan darajadagi qonunchilik orqali belgilab qo'yilgan huquq hamda majburiyatlarga egalar. Ular o'z faoliyatini tashkil etishda qonunchilikda belgilab qo'yilgan huquqlardan to'laqonli foydalanishlari bilan birga,

¹ O'zbekiston Respublikasi 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son qonuni. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi. 3-M.

majburiyatlarga ham egalar. Ya'ni, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar o'z huquqlaridan foydalanish jarayonida majburiyatlariga ham to'liq rioya etishlari shart. Shu ma'noda, jamoatchilik nazoratini tashkil etuvchi sub'ektlar huquq va majburiyatlari ularning huquqiy maqomini ifoda etadi. Shu jihatdan kelib chiqib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati sub'ektlari quyidagi huquq majburiyatlarga ega sanalishadi. Jamoatchilik nazorati subyektlari:

jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotganda tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga, ularni tashkil etishga, shuningdek ularda ishtirok etishga;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonunchilikka muvofiq davlat organlaridan so'rab olishga;

jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashga hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishga;

davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga;

jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilishga haqlidir.

Jamoatchilik nazorati subyektlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati subyektlari:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan cheklavlarga rioya etishi;

davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining faoliyati uchun to'siqlar yaratmasligi;

fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning tarqatilishi qonun bilan cheklangan bo'lsa, uning maxfiyligiga rioya etishi shart.

Jamoatchilik nazorati subyektlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari masalasida fikr yuritar ekanmiz, bu borada olimlarning ham ilmiy qarash va yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib o'tishni o'rinli deb bilamiz. T.Do'stjanov va S.Hasanovlar jamoat nazorati – fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni to'g'ri tashkil etishning asosiy institutlaridan biri ekanligini e'tirof etishar ekan, unga nisbatan kengroq yondashishni taklif etadilar: «Jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlari faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek, davlat va

nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratdir».²

Yu.f.n., J.Abdullayevning fikricha, OAV tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati tizimining samarali faoliyat yuritishi quyidagi natijalarga olib keladi: hokimiyat organlari faoliyatining ochiqqligi va ularning hisobdorligi oshishiga; hokimiyat organlarida korrupsiyaning pasayishiga; hokimiyat organlari faoliyati samaradorligining oshishiga; jamoatchilikning hokimiyat organlariga nisbatan bo'lgan ishonchining oshishiga; fuqarolarning davlat

boshqaruvida keng ishtirokini ta'minlanishiga; ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hamkorlikda yechish va boshqalarga.³

² T.Do'stjanov. S.Hasanovlar. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: Toshkent Moliya instituti, 2004, 80-b. 162 163.

³ J.M.Abdullayev. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy

axborot vositalarining roli (nazariy-huquqiy masalalari) yu.f.n (R)

Toshkent. 2008. 110-b.164 165.

O‘z navbatida ta’kidlab o‘tishimiz o‘rinli bo‘ladiki, ommaviy axborot vositalari bugungi kunda jamoatchilik nazoratini tashkil etishning muhim sub’ektlaridan biri sanalishadi. Qaysiki ma’noda, ommaviy axborot vositalari yordamida fuqarolar qonunchilikda bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda yangiliklardan xabardor bo‘lishadi. Shu sababli, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini tashkil etuvchi muhim sub’ektlardan biri sifatida baholanishadi. Jamoatchilik nazorati sub’ektlarining ta’sirchanlik doirasi quyidagi jihatlar orqali ahamiyatli hisoblanadi.

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatlarini tashkil etishda, jamoatchilikning e’tiborida turishlarini his etishlari talab etiladi. Jamoatchilik nazorati ijro etuvchi organlar va ularning xodimlarini o‘z vazifalarini amalga oshirishdagi mas’uliyatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Jamoatchilik nazorati ta’sirida, ijro etuvchi hokimiyat organlarining xalq oldida hisobdorlik darajasi oshadi. Davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari davlat tomonidan amaliyotga joriy qilingan qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha, xalq oldida hisobotlar berishadi. Qonunchilik ijrosini ta’minlash masalasi bo‘yicha taqdim etilgan hisobotlarning qanchalik haqiqatga mutanosibligini tekshirish, aniqlash maqsadida jamoatchilik nazorati tashkil etilishi mumkin.

3. jamoatchilik nazorati qonunlarga zid xatti harakatlarni oldini olish bilan bir qatorda, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan muhim tuzilmalardan biri hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023 yildagi «Davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishning zamonaviy shakllari joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021 yil 18 iyundagi 380-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 489-son qaror qabul qilindi.

Har bir mahallada «mahalla nazorati» guruhlarini tashkil etiladi. Ularning maqsadi – quyidagilar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan iborat:

- normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar qabul qilinayotganda jamoatchilik fikrini inobatga olinganligi;
- davlat idoralari tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda amaldagi qonunchilikka rioya etilishi;
- davlat organlari, tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida bitimlar, shartnomalar va dasturlarni amalga oshirishdagi faoliyati;
- hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektori faoliyati.

Mahalla nazorati guruhi uning rahbari (mahalla raisi), o'rinbosari, kotib va guruh a'zolaridan iborat.

Guruhga namunali hulqqa, katta hayotiy tajribaga ega (davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslaridan tashqari) fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari qabul qilinadi.

Guruh tashkil etilayotganda gender tengligi tamoyiliga rioya etilishi lozim. Shuningdek, uning tarkibiga nogironligi bo'lgan shaxslar kiritiladi.

Guruh a'zolari fuqarolar yig'ini tomonidan 5 yilga saylanadi. Mahalla raislariga davlat organlari va idoralariga, ularning mansabdor shaxslariga so'rov yuborgan holda ularning faoliyatlariga oid masalalar bo'yicha tushuntirish va o'z munosabatini bildirishni talab etish huquqi berilmoqda. Shu bilan birga, so'rov fuqarolar yig'ini faoliyatiga oid bo'lishi lozim.⁴

Umuman olganda, jamoatchilik nazorati masalasiga bugungi kunda, davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat taraqqiyoti strategiyasida ham jamoatchilik nazorati masalasi bo'yicha bir qator vazifalarning belgilanganligi diqqatga sazovor albatta. Misol uchun Taraqqiyot strategiyasining "Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" deb nomlangan 12-maqsadida bir qator vazifalar nazarda tutilgan. Ushbu vazifalar ayni vaqtda izchillik bilan bajarilmoqda.

⁴ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/har_bir_mahallada_mahalla_nazorati_guruhi_tashkil_etiladi.

Birinchidan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish haqida soʻz bormoqda. Bu borada, jumladan, hududiy, tarmoq va davlat dasturlari loyihalarini ochiq eʼlon qilib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish amaliyoti yoʻlga qoʻyilmoqda. Shuningdek, kambagʻallikni qisqartirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, ehtiyojmand aholini kasbga oʻrgatish kabi ijtimoiy foydali loyihalarni amalga oshirishni nodavlat notijorat tashkilotlarga ochiq tanlov asosida taqdim etish ham bunda muhim oʻrin tutishiga eʼtibor qaratilmoqda.

Ikkinchidan, ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati subʼektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini oʻrganishda ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish amaliyoti yoʻlga qoʻyilmoqda. Bunda, avvalo, jamoaviy murojaatlar asosida yangi qurilgan va taʼmirlangan infratuzilma obʼektlari sifatini tekshirish amaliyotini joriy qilish masalasi alohida diqqat markazida turibdi.

Uchinchidan, jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslarini yanada mustahkamlanmoqda. Xususan, jamoatchilik nazoratining samarali va taʼsirchan shakllarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish maqsadida “Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida”gi qonun qayta koʻrib chiqilayotir.

Toʻrtinchidan, ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasi yanada kuchaytirilmoqda. Bu muhim maqsadga erish uchun, birinchi navbatda, fuqarolarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning samaradorligini oʻrganishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish tartibini joriy qilish choralari koʻrilmoqda.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga noqonuniy aralashganlik va toʻsqinlik qilganlik, jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan senzura oʻrnatish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq oʻtkazish, materiallar va texnik vositalarni ulardan gʻayriqonuniy ravishda olib qoʻyish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish nihoyatda muhim.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasida, jumladan, ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning ijrosi ahvolini

o'rganishda ijod ahli mehnatidan samarali foydalanish ko'zda tutilgan. Binobarin, bularning barchasi yurtimizda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.⁵

Harakatlar strategiyasi doirasida ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish borasidagi o'rni va ahamiyati qonunchilik negizida tubdan kuchaytirilgandi. Taraqqiyot strategiyasida ana shu tashkiliy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgani yangi davr talabidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvarda qabul qilingan «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori bu borada navbatdagi muhim amaliy qadam bo'ldi.

Qarorga muvofiq, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratish maqsadida Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblangan, soha olimlari, faxriylari va jurnalistlardan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilishi belgilandi.⁶

Ichki ishlar vazirligi rahbariyatining fikricha, jamoatchilik kengashlarini tuzish masalasi birinchi navbatda, demokratik jamiyatning muhim sharti va xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu institut zamon talabi hamda islohotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, joriy etilmoqda. Jamoatchilik kengashlari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi, shubhasiz, o'zining aniq natijasini berib, tizim faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son qonuni. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi. 3-M.

⁵ 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida

PF-60-сон 28.01.2022.

⁶ <https://parliament.gov.uz/articles/1690>.

2. T.Do'stjanov. S.Hasanovlar. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: Toshkent Moliya instituti, 2004, 80-b. 162 163.
3. J.M.Abdullayev. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli (nazariy-huquqiy masalalari) yu.f.n (R). Toshkent. 2008. 110-b.164 165.
- 4.https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/har_bir_mahallada_mahalla_nazorati_guruhi_tashkil_etiladi.
5. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-сон 28.01.2022.
6. <https://parliament.gov.uz/articles/1690>.